

**ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAK TABGACHA YOSHIDAGI
BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR NING AHAMIYATI**

Kenjayeva Sarvinoz Toshboltayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) yo'nalishi magistranti

Gmail:sarvinozkenjayeva01@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi. Hozirgi vaqtida eshitish muommolari bo'lgan bolalar soni ortib bormoqda. Nutqni rivojlantirish jarayonida kar bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish nutq qiyinchiliklarini yengishda muvaffaqiyatda erishishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, innovatsion texnologiya, mnemotexnika, sog'liqni saqlash texnologiya, aql xaritasi, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, nutqni rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье говорится о важности использования инновационных педагогических технологий для развития речи у детей дошкольного возраста с нарушениями слуха. В настоящее время количество детей с проблемами слуха продолжает увеличиваться. Использование инновационных педагогических технологий в процессе развития речи у глухих детей помогает достичь успеха в преодолении трудностей речи.

Ключевые слова: Дети с нарушениями слуха, инновационные технологии, мнемотехника, технологии здравоохранения, карты разума, информационно-коммуникационные технологии, развитие речи.

KIRISH

Hozirgi vaqtida eshitish qobiliyati zaif bolalar soni ortib bormoqda. Shuning uchun maktabgacha ta'lif bo'limining tuzatish va tarbiyaviy ishining asosiy vazifalaridan biri bunday maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni shakllantirishdir. Chunki eshitish qobiliyatidan mahrum bo'lgan o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi va jamiyatga integratsiyalashuviga bog'liq. Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq holati turlicha va bir qator omillarga bog'liq: eshitish qobiliyatini yo'qotish darajasi va davomiyligi. Eshitish qobiliyati qanchalik ko'p yo'qotilgan bo'lsa, eshitishidagi nuqson shuncha erta boshlanadi, buning oqibatida nutq buzilishlari ortadi; bola va oilaga tibbiy-pedagogik yordamning mavjudligi. Bolaga eshitish vositalari

qanchalik tez berilsa, u bilan tuzatish ishlari tashkil etilsa va u nutq muhitiga kiritilsa, bola shunchalik muvaffaqiyatli rivojlanadi; bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanish darajasi. Asosan, maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chaga borgan vaqtida ularning nutqiy rivojlanish darajasi past bo'ladi: nutqning to'liq shallanmaganligi, ovozlarga reaktsiyaning chegaralanganligi, muloqot jarayonida qisqa tushunarli bo'limgan so'zlardan foydalanish, agrammatizmli iboralar kuzatiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tovushlar talaffuzi ham buziladi. Shuning uchun, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchi, erkin muloqot jarayonida nutq faolligini har qanday vosita bilan rag'batlantirish muhimdir. Har bir inson biladiki, agar bola biron bir qiziqarli mashg'ulot bilan shug'ullansa, unda bu faoliyatning natijasi yaxshiroq bo'ladi.

Asosiy qism:

Innovatsion pedagogik texnologiyalar - bu bolaning shaxsini rivojlantirishga qaratilgan usullar, shakllar tizimidir. Texnologiyani tanlashda eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning bir qator xususiyatlarini inobatga olish kerak: bolaning yoshi, saqlanib qolgan eshitish darjasini va nutq qobiliyatlarini, individual xususiyatlarini, muloqot qibiliyatlarini. Innovatsion texnologiyalardan biri bo'lgan mnemonika – bu eslab qolishni osonlashtiruvchi maxsus usullar, qoidalar yoki texnikalardir. Ular murakkab yoki qiyin ma'lumotlarni, masalan, raqamlar, so'zlar, qoidalar yoki faktlarni yodlash uchun ishlatiladi. Mnemotexnika ko'pincha o'xshash tovushlar, qisqartmalar, qafiyalar yoki boshqa biror bog'lanish yordamida xotirani mustahkamlaydi.

Texnologiyaning mohiyati: har bir so'z yoki ibora rasm, eskiz yoki belgi bilan almashtiriladi. Belgilar nutq materialiga iloji boricha yaqinroq bo'lishi kerak, masalan, "o'rmon" yovvoyi hayvonlarni, "uy" esa uy hayvonlarini belgilash uchun ishlatiladi. "Sigir qayerda yashaydi?" degan savolga javob berayotganda bola uyning rasmini tanlaydi va uni og'zaki ravishda javob beradi. Keyingi bosqich - mnemotexnik yo'lakcha. Bu chiziqli tarzda joylashtirilgan 4 yoki undan ortiq kvadratlardan iborat jadval. Mnemotexnik yo'lakchadan foydalanishda, birinchi kvadrat- savol "bu nima?" - predmet nomlanadi; ikkinchi kvadrat -ranglar, bunda bola predmetning rangini aytadi; uchinchi kvadrat - o'lchami- boladan predmetning hajmi(katta,kichik) ; to'rtinchi kvadrat-predmetning geometrik shaklini ifodalash so'raladi. Shu kabi topshiriqlarni berib borish orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani tevarak atrofdagi narsa buyumlar bilan tanishtiriladi, bu esa o'z navbatida bolaning lug'at boyligini ortishiga imkon beradi. Mnemotexnik jadval - bu diagramma bo'lib, bunda butun matn chizilgan bo'ladi. Bu matn orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning bog'langan nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan "Fasllar" mavzusida bolaga birqancha rasmlar to'plami beriladi bola rasmlarni to'g'ri ketma- ketlikda qo'yishi orqali hikoya tuzadi.

Bu jarayonda bolaning nutqidagi kamchiliklar tuzatib boriladi, talaffuzi qiyin so'zlar ustida ishlanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan “Intellektual xaritalar” usulidan foydalanishda bolaning ko‘rgazmali-obrazli tafakkuriga tayangan holda olib boriladi, bunda bolaning nutqiy ko‘nikmalari rivojlanadi va xotirasi faollashadi. Intellektual xaritadagi ma’lumotlar maksimal darajada vizuallashtirilgan bo’lishi hamda bola uni bir qarashda idrok eta olishi kerak. Intellektual xaritalar usulining mohiyati shundaki, muayyan mavzuga oid barcha ma’lumotlar turli rangdagi rasmlar va ramzlar shaklida taqdim etiladi. Intellektual xaritalarni tuzish qoidalari: qog‘oz gorizontal holatda joylashtiriladi. Qog‘oz markazida asosiy g‘oya ajratib ko‘rsatiladi (masalan, “Oila” mavzusi nomi). Mavzuni rasm yoki so‘z bilan ajratish mumkin. Markazdan (asosiy mavzudan) asosiy fikr (kichik mavzular) uchun chiziqlar (shoxlar) o‘tkaziladi. Rangli qalamlar va ruchkalardan foydalaniladi. Har bir fikr alohida rang bilan ajratiladi. Har bir shox kalit so‘z (mavzuga mos so‘z), ibora yoki rasm bilan belgilanadi. So‘zlar va iboralar bosh harflar bilan, o‘qilishi oson bo‘lgan shaklda yoziladi. Ko‘plab turli xil rasmlar va ramzlardan foydalaniladi. Intellektual xaritalardan bog‘langan nutqni rivojlantirish uchun hikoya tuzishda qo’llaniladi. Masalan, o‘z oilasi haqida hikoya tuzishda bolalarga intellektual xarita taklif etiladi. Xaritaning markazida oilaning rasmi bo‘ladi. Markazdan quyidagi yo‘nalishlar chiziladi: “Oilada nechta kishi?” yozuvi, undan kattalar va bolalar tasvirlari bilan rasmlar (nechta kattalar? nechta bolalar?). Keyingi yo‘nalish: “Ismlarini ayt” yozuvi, unda ota, ona, buvi, bobo, bola, qiz tasvirlari. Yana bir yo‘nalish: “Qayerda ishlaydi?” yozuvi, unda ota va ona rasmlari va hokazo. Oxirgi yo‘nalish: “Uyda nima qiladi?” yozuvi va oilaning barcha a’zolari tasviri. Intellektual xaritadan foydalanib, bola fikrlarini ketma-ket va mustaqil ravishda (dastlab pedagog yordamida) bayon qiladi, savollarga javob berishni o‘rganadi, lug‘atini kengaytiradi, analitik o‘qish ko‘nikmasini takomillashtiradi. Agar bolaning nutqi past darajada rivojlangan bo‘lsa, u har bir xarita shoxi uchun javob yozuvchalarini tanlashi yoki bosma harflar bilan javoblarini yozishi mumkin. Bu usul nutqni rivojlantirish, matematik tasavvur, konstruktiv o‘yinlar va atrof-muhitni o‘rganish bo‘yicha mashg‘ulotlarda qo’llaniladi.

Nutqni rivojlantirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish, konstruktiv o‘yinlar va atrof-muhitni o‘rganish bo‘yicha mashg‘ulotlarda “Multimediyali taqdimot” larining ahamiyati katta. Multimediyalar har bir bola uchun individual tarzda, maktabgacha ta’limning maxsus o‘quv dasturlari talablari asosida yaratiladi. Defektolog o‘qituvchining resurslarida barcha leksik mavzularni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z ichiga olgan taqdimotlar kartotekasi mavjud bo‘ladi.”Multimediyali taqdimotlar” interaktiv doska, interaktiv qum maydonchasi va interaktiv stol vositalri bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘yinli o‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarli o‘tkazilishiga samara beradi. Maktabgacha ta’lim

bo‘limidagi defektolog o‘qituvchining kompyuteri eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar nutqining barcha tomonlarini rivojlantirish va bilimlarini tizimlashtirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar bilan jihozlangan bo’ladi.Bunday o‘yinlar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin. “So‘zli o‘yinlar” – lug‘atni boyitish, rasmlar ketma-ketligi bo‘yicha hikoya tuzish uchun; “Nomla” – predmet, fe’l va sifat lug‘atini kengaytirish uchun;“Qadam ba qadam” – bog‘langan nutqni rivojlantirish, ko‘rish va eshitish idroki, makonda mo’ljal olish, matematik tasavvurlar, atrof-muhit haqida tushunchalar, fazoviy fikrlashni rivojlantirish uchun;“Raqam va hisob” – matematik iboralar orqali lug‘atini boyitish, sonlarni tuslash, eshitish idrokini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Eshitishida nuqsoni bo’lgan mактабгача yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan bir qator afzallikkarga ega. Animatsiyalar real hayotiy vaziyatlarni modellashtiradi va predmetlarning xususiyatlarini o‘rganishga imkon beradi. Ekrandagi suratlar bolaning diqqatini jalb qiladi, mashg‘ulotni hissiy, qiziqarli va samarali qiladi. Nutqni rivojlantirish bo‘yicha monitoring o‘tkazish eshitishida nuqsoni bo’lgan mактабгача yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini oshiradi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda faol bo‘lishiga undaydi. Shu bilan birga innovatsion ta’sir usullari defektolog o‘qituvchining faoliyatida eshitish buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning samarali vositasiga aylanadi. Bu usullar mактабгача yoshdagi bolalarda nutqiy qiyinchiliklarni yengishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, innovatsion texnologiyalar an’anaviy o‘quv vositalarini to‘liq bosa olmaydi, lekin ularning imkoniyatlarini yanada kengayishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Власова Т.М. Пфаффенродт А.Н. Фонетическая ритмика в школе и детском саду: Практикум по работе со слабослышащими детьми.- М.,1997 .
2. D.A Nazarova,Z.N. Mamarajabova Surdopedagogika.Darslik. Toshkent , 2019
3. D.A.Nazarova . Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish. Toshkent, 2009